

10. Yo'ldosova S.N. Muloqotga o'rgatish treninglari asosida shaxs tolerantlik xususiyatlarini shakllantirish metodikasi. Magistrlik dissertatsiyasi. – Termiz: 2022. 95-b.

11. Иброхимов С. Нутк маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. – Toshkent: «Фан», 1972.

12. Siddiqov B.S. Aksiologik yondashuv asosida o'quvchilar dunyoqarashining shakllantirish mazmuni. –Toshkent: Innovative academy “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2023. 2(8), 104-107-b.

REZYUME. Maqolada aksiologik yondashuvlar asosida muloqot madaniyatini shakllantirish ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarini inobatga olishni talab etishi, bu yondashuv ta'lim oluvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilishi, inson hayoti doimiy ravishda voqealarni baholaydigan, maqsadlar qo'yadigan, izlanishlar olib boradigan, xulosalar chiqaradigan va o'z dunyoqarashini shakllantiradigan jarayon ekanligi haqida fikrlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье высказываются мнения о том, что формирование культуры общения на основе аксиологических подходов в образовательном процессе требует учета национальных ценностей, обычаев и традиций. Такой подход способствует воспитанию обучающихся в духе патриотизма, служит их личностному и социальному развитию, а также подчеркивается, что жизнь человека — это постоянный процесс оценки событий, постановки целей, поиска, выведения выводов и формирования собственного мировоззрения.

SUMMARY. The article presents the view that the formation of a culture of communication based on axiological approaches in the educational process requires consideration of national values, customs, and traditions. Such an approach contributes to educating students in the spirit of patriotism, supports their personal and social development, and emphasizes that human life is a continuous process of evaluating events, setting goals, conducting research, drawing conclusions, and forming one's own worldview.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MILLIY URF-ODAT VA AN'ANALARNING O'RNI

A.S.Ismaylov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

K.Zeripbaeva – talaba

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: milliylik, urf-odat, qadriyatlar, an'analar, tarbiyalash, ma'naviy meros, avlod.

Ключевые слова: национальный, обычаи, ценности, традиции, воспитание, духовное наследие, поколение.

Key words: national, customs, values, traditions, upbringing, spiritual heritage, generation.

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy jihatdan kamol topishida milliy urf-odat va an'analarimizning o'rini ahamiyatli bo'lib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan g'oya bilan aytganda «Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat» [1]. Ushbu ulug'vor maqsadlar uchun vazifa etib belgilangan rivojlantirish rejasi, bugungi kunda amaliyotda o'z isbotini topib bormoqda. Har bir jamiyat taraqqiyoti davomida milliylikni targ'ib etib, urf-odat va an'analarning davomiylikni ta'minlash, kelajak avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash negizida boshlang'ich sinf o'quvchilarini Vatanparvarlik ruhida o'stirish, oilada farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, o'zbek xalqining azaliy qadriyatlariga kiradi. Tarbiyaning asosiy tamoyillari amalga oshiriladigan bo'lsa, iqtisodiy sohaning rivojlanishi yo'l ochib beradi.

Asosiy qism. Milliy urf-odatlar - har bir millatning turmush-tarziga singib ketgan, uning shakllanishi hamda rivojlanishiga xizmat qiladigan, ijtimoiy va madaniy hayotida o'z aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidolari va ko'nikmalar ko'rinishini anglatadi.

Milliy urf-odatlar xalqimizda o'zgacha ko'rinishga ega. Bunda alohida e'tibor qaratish keraki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash jarayonida milliy urf-odat va an'analarimizning o'rni beqiyosdir. Chunki, maktabga tashlanagan ilk qadamlar tarbiyalash jarayoni o'z ichiga

qamrab olib, ta'lim muhitida o'quvchilarini jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan har tomonlama ma'naviyatli, xalq tili bilan aytganda «tarbiyali inson» ni sog'lom fikrlaydigan avlod sifatida voyaga yetkazish asosiy vazifalardandir.

Quyida xalqimizning asl urf-odatlaridan keltirilgan namunalar bilan tanishamiz. Inson bolasini tug'ilmasidan turib, ona vujudidaligidayoq axloqiy tarbiyalash, ya'ni, onani moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlash orqali, bola ona qornidaligida onani asabiylashtirishga sabab bo'ladigan narsalardan uzoq tutish bilan bolani turli asab kasalliklaridan asrash. Shuningdek, bola tug'ilganidan keyin, ota-onaning farzand oldidagi majburiyatlarini ado etishi asosiy vazifa hisoblandi. Islomiy nuqtayi nazardan qaraganda, farzand tarbiyasida tarbiyalanuvchi berilgan ta'lim va tarbiyani yaxshi qabul qilsa, bu jarayonda pedagogik jihatdan yondashilib, bolaga muloyimroq munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Agar tarbiyalanuvchi o'z boshimcha, berilgan ta'lim va tarbiyani yaxshi qabul qila olmaydigan bo'lsa, u holda qattiqroq usul bilan tarbiyalash vositasidan foydalaniladi. Oilada yangi tug'ilgan farzandga to'g'ri va chiroyli ism qo'yish ota-onaning farzi hisoblanadi. Oilada o'g'il bolaga beriladigan tarbiyaga nisbatan qiz bolaga beriladigan tarbiyada biroz muloyimroq bo'lish uqtiriladi. Chunki, qiz bolaning ko'ngli nozik bo'ladi, shuning uchun qiz bolaga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish maqsadga muvofiq. Ushbu fikrlar farzand tarbiyasini «oila+maktab+mahalla» tizimida boshlang'ich sinflardan boshlab yo'lga qo'yishni anglatib qolmasdan, bir so'z bilan aytganda urug'dan unadigan niholni parvarish qilish kuni kelib meva beradigan daraxtga qiyoslanadi. Ya'ni bola maktabgacha bo'lgan tarbiyalash jarayonida urf-odatlarimizga amal qilingan

holda tarbiyalanib, maktabga kelganidan keyin nihol ya'ni bola voyaga yetishishida zaruriy ma'naviy dunyosini boyitish, niholni kuni kelib, meva berishiga sharoit yaratishda ota-bobolarimizning tarbiyalash metodlaridan foydalanamiz. Zero, XXI asrda butun musulmon jamiyati oldida turgan ota-onaning farzand oldidagi burchlari va farzandlarning jamiyatda o'z o'rini topib, o'zligini anglagan holda, mustaqil shaxs sifatida voyaga yetganidan keyin ota-ona oldidagi burch va vazifalarini ado etishi, urf-odatlarimizning yana bir ko'rinishidir.

«... Har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan, o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekanligi ayon bo'ladi. O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisoli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi» [2:157] jumlar bolalarning 1-2 yoshidan to 1-2-sinf gacha o'yinchoq va turli obrazli, an'anaviy va no'an'anaviy o'ynlarni o'ynab ulg'ayishi davomida, maktabgacha davrda, farazlarga bog'liq holda sarguzashtlari ichida milliylikka asoslangan holda tarbiyalanib borsa, boshlang'ich sinflarda o'yinchoqlar yordamida o'ynaladigan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ezgulikni targ'ib qiluvchi ideal, o'zbekona, milliylikni o'z ichiga qamrab olgan ertak qahramonlari, milliy o'ynlar o'quvchilarni axloqiy jihatdan qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalashni nazarda tutadi. Kichik tajriba sifatida aytishimiz mumkinki, o'quvchilarni milliy urf-odat va an'analar asosida tarbiyalash masalasini taqqoslash metodi orqali tahlil qilamiz. O'tmish va bugungi kunga diqqat bilan nazar solaylik, ya'ni 10-11-yoshgacha bo'lgan bolalarni urf-odat va an'analarimizga tayangan holda, taxminan, 2018-2019-yillargacha bo'lgan davrlarda tug'ilgan bolalarning axloqiy jihatdan tarbiyalanish jarayonlarini tahlil qilamiz. Bu albatta, "Iqtisodiyot+siyosat+madaniyatlarning rivojlanishi" mamlakatimizda ma'naviy va moddiy hayotda katta o'zgarishlarga olib keladi. E'tibor beraylik, yuqoridagi yillargacha tug'ilgan chaqaloqlarning 10-11-yoshigacha tarbiyalanishi yuqori sinfgacha bo'lgan davrda boshlang'ich sinf o'quvchilarini qadimiy milliy o'ynlar, insonlarni mehr-oqibatli ya'ni o'zbek xalqining mehmondo'stligi nazarda tutilgan holda ochiqko'ngillilik va haqq'o'ylikka o'rgatish, bayramlarda kiyiladigan milliy liboslarning asl mohiyatini tushuntirish va sharqona qadriyatlar uyg'unligi tom ma'noda aytganda, milliyligimizga bo'lgan kuchli hurmat va ehtirom ruhida o'stirish shuningdek, o'zbek xalqi boshqa xalqlar tilida ishonuvchan, sodda xalq sifatida e'tirof etilganligini, inobatga olgan holda o'quvchilarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirishdan foydalanilgan. 2019-yildan keyingi davr, jadal rivojlanish davriga to'g'ri kelib, har bir sohada islohotlar o'tkazilishi natijasida xalqaro maydonlarda O'zbekiston katta muvoffaqiyat va zafarlarga erishdi. Endi esa, yana 11-yoshgacha bo'lgan o'quvchilarini tarbiyalash jarayonida milliy urf-odat va an'analarimizning ahamiyatini ko'rib chiqamiz. Texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan bunday davrda, asosan aksariyat, 40% bolalar turli gajet, va internet tarmoqlari bilan bog'langanligini hisobga olgan

holda tarbiya jarayonlari amalga oshirilmoqda. Zamonaviy jamiyatda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash, amaliyotiga zamon talabiga mos tarzda, tashkil qilish choralari tadqiq etilib, qo'llanib kelinmoqda. Har bir bolaning qo'lida telefon, planshet va shunga o'xshash texnologiyalar borligini inobatga olgan holda o'zbek xalqining milliy urf-odat va an'analarini, keyingi avlodga, sofligicha, yetkazib berish maqsadida aynan o'quvchilarning tarbiyalanish jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Namuna sifatida «Yoshlar ishlari agentligi» tomonidan tashkil etilgan «Bek va Lola» – O'zbek milliy multfilmi bolalarni tarbiyalash uchun haqiqiy milliylik namunasi bo'ldi. Bevosita ushbu multifilm o'quvchilarini tarbiyalashda milliy kayfiyatni yuzaga keltirdi.

Ikkala bosqichi uchun umumiy xulosa shuki, har bir davrning tarbiyalash turlari va yo'llari o'zgarishi mumkin, lekin beriladigan milliy tarbiyaning asosiy mazmuni va qadriyatlari o'zgarmaydi. O'zbek xalqining o'zgachaligi ham ana shunda deb, hisoblayman.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi hisbolangan buyuk ajdodimiz Abdulla Avloniy pedagog sifatida o'quvchilarni tarbiyalashda, o'qituvchining o'rni haqida «Tanlangan asarlar» kitobida shunday fikr yuritadi: «Bolalarning fikrlash qobiliyatini o'stirish va uning tarbiyasi bilan muntazam shug'ullanish benihoya zarurdir. Binobarin, u muallimning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadir. Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdir. Ayni zamonda muallif ta'lim va tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayirmaydurg'on, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitdir» [3:15] Har bir o'qituvchi o'quvchilarining tarbiyalanish jarayonida muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning dunyoqarashini o'stirish, milliy urf-odat va an'analarimizning tub mohiyati aks etgan tarbiyalash usullaridan foydalanish, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Chunki, o'quvchining zehni, odobli bo'lishi o'qituvchining bergan tarbiyasiga bog'liqdir. Ta'lim va tarbiya mohiyatan bir-birlariga o'xshash bo'lmasada, bir-birisiz mavjudlik natijasini berolmaydi. Aniqrog'i ta'limsiz tarbiya, tarbiyasiz ta'lim ziyoli yoshlarni tarbiyalash uchun yetarli vosita hisoblanmaydi. O'quvchining olgan milliy tarbiyasi, uning ilmini ziyoda bo'lishiga, yuksalishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki, bunday sharafini ma'suliyatiga olgan o'quvchi uchun birinchi navbatda ta'lim va tarbiya uyg'unlashgan holda, ularni XXI asr ko'nikmasi "4K" kritik, kreativ fikrlash, kommunikatsiya va kooperativ ko'nikmalarini shakllantirishda eng muhim xususiyat, bu o'quvchining haqiqiy o'zbek kishisida mavjud bo'ladigan tarbiyasi bilim olish jarayonini samarali tashkil qilish uchun katta motivator vazifasini o'taydi.

Milliy an'analar - kelajak avlod uchun ma'naviy meros sifatida qoldirigan, avloddan avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat.

O'zbek xalqining o'ziga xos tarixiy an'analari mavjud bo'lib bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini qadimiy an'analariga tayangan holda tarbiyalash to'g'risida, mashhur pedagoglar Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H.,

K.O.Matnazarovalarning "Umumiy pedagogika" nomli kitobida shunday fikr yuritadi: «Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdagi o'z asosiy vazifalarini: o'zini maktabda, uyda, ko'chada qanday tutish qoidalarini bilib oladilar. Bunday odatlar ularga namuna ko'rsatish, tushuntirish yo'li bilan singdiriladi. Bolalarning yoshi ulg'aygan sari ularga talab ham orta boradi. Shu tufayli o'rta va katta yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularing mustaqilligiga suyanib ish ko'rish yaxshi natija beradi» [4:231]. O'zbek xalqimiz, mehmondo'st va bolajon xalqligi, an'anlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Agar e'tibor qaratadigan bo'lsak, har bir o'zbek an'analari, urf-odatlarini tizimi boshlang'ich sinflarda Tarbiya darsligi misolida o'quvchilarining ongiga singdirilib boriladi. Misol tariqasida keltirshimiz mumkinki, 3-sinf darsligi «An'analar va madaniyat» mavzusida boshlang'ich sinf o'quvchilariga an'alarimizni hurmat qilish, madaniyatlarimizni anglash uchun zamin yaratib berish va qadrlash aynan o'quvchilariga an'ana aslida nima ekanligini o'rgatuvchi jumlar orqali mavzuga mos yo'nalishda kichik hikoyalar bilan davom etgan. Masalan, «An'ana bir avloddan keyingi avlodga, kattalardan kichiklarga o'tib kelayotgan qadriyatlaridir. «An'ana» so'zi arab tilida "nasldan naslga o'tadigan 8 qoidalar" degan ma'noni bildiradi. An'analarni urf-odatlar, milliy liboslar, taomlar va hunarmandchilikda ko'rish mumkin. Milliy an'analar tufayli o'tmishimiz bugungi kunda yashab, kelajakka qarab qadam bosadi. Katta avlodlarning hikmatlari yosh avlodga o'tishda davom etadi» [5:64]. Bundan anglashiladiki, an'analar bugungi kungacha amalda mavjud bo'lgan «nasldan naslga o'tadigan 8 qoidalar» ma'nosini anglatib, har bir xalqning o'zligini, jumladan, milliyigimizni anglatuvchi ramz sifatida, buyuk bobokolonlarimizning o'git-nasihatlaridan, ilmiy merosidan foydalangan holda yosh avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

«Urf-odatlar qancha hayotiy, xalqchil, qancha keng tarqalgan bo'lsa, u xalqqa shuncha tez singadi, shuncha uzoq yashaydi. Masalan, hozirgi kunda mavjud bo'lgan an'analarning ko'pi uzoq tarixga ega. Biroq ular o'z davrida qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha qolgan deb

bo'lmaydi. Hayot ularga o'zining yangi-yangi xususiyatlarini, davr silsilasini kiritgani aniq. Har davrning vujudga keltiradigan yangi an'anasida yangi avlod vakillarining milliy xususiyatlari, shuningdek, ularning o'tmish haqidagi yorqin xotiralari, mehnatkashlar ommasining kelajak uchun intilishi o'z aksini topib boradi» [6:100]. Milliy urf-odat va an'analarni aks ettirgan musulmon xalqlarining «Navro'z» milliy bayrami hisoblanadi. Ushbu bayram o'quvchilarining qadimiy qadriyatlarimizni o'ziga xosliklarini o'rganish uchun muhim bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy taomlar, liboslar, o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan «Sumalak» taomini tayyorlash va unga tosh tashlash orqali ezgu niyatlar bildirish, urf-odatlarimizning ajralmas qismini tashkil etadi va bu ham tarbiyalash vositasi, sifatida qaraladi. Qiziq tuyulgan ushbu jarayon o'quvchilarni tarbiyalashda ertakdan foydalanish va amaliy qadriyatlarni amalga oshirish usullarini ko'rib chiqadi. Masalan, «Hasan va Husan» ertagi sumalakning kelib chiqishi haqida bo'lib, ertak boshlang'ich sinf o'quvchilarni shukronalik hissida tarbiyalash uchun maqbul variantni beradi.

Xulosa va takliflar. Keltirilgan fikrlar tahlili uchun umumiy xulosa shuki, o'quvchilarini milliy urf-odat va an'alarimizga tayangan holda tarbiyalash jarayonlariga alohida e'tibor qaratib, maktab o'quvchilari, asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliylik ruhida tarbiyalashni ko'zlagan holda, har haftaning har juma kuni 2025-yilning 22-yanvar kundan boshlab «Milliy liboslar» kuni deb e'lon qilinganligidan foydalangan holda, har juma kuni qizlar uchun milliy atlas, adras va do'ppi, o'g'il bolalar uchun yosh xususiyatlariga mos tarzda ota-bobolarimizning o'zbek xalqining g'urur manbai sifatida kiyishgan, milliy liboslar ya'ni bosh qismiga do'ppi va «To'n» deb ataluvchi libosni qulay ko'rinishga keltirish orqali, belgilangan kunda (Juma kuni) kiyishlarini milliy an'anaga aylantirishni taklif bildirib o'taman. Birdan bir maqsad, milliyigimizni avlodlardan avlodlarga yetkazish ko'zlagan holda, o'zbek urf-odat, an'ana va qadriyatlarini, hamma zamonlarda o'quvchilarini tarbiyalashda foydalanish ahamiyatini oshirish masalasini o'z ichiga qamrab oladi.

Adabiyotlar

1. <http://isrs.uz/oz/uzbekiston-yangiliklari/shavkat-mirziyoyev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatidir/>.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikkinchi kitob. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2020.
4. Mavlonova R.A., Rahmonquliva N.H., Matnazarova K.O. Umumiy pedagogika. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2018.
5. Usmonova O.V., Risyukova Y.V. Tarbiya. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: «Novda Edutainment», 2023.
6. Ismailova Z. K. Pedagogika. – Toshkent: «Moliya», 2007.
7. Исмаилов А.С. Ўқувчи ёшларни тарбиялашда миллий анъаналар ва урф-одатларнинг таълим-тарбиявий аҳамияти. “Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар” мавзусидаги республика 23-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари. -Тошкент: 2020. 186-б.

REZYUME. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama intellektual salohiyatli shaxs sifatida tarbiyalashda, o'zbek xalqining milliy urf-odat va an'analarning salmoqli o'rni haqida keng tarzda tadqiq etiladi.

РЕЗЮМЕ. В статье всесторонне рассматривается значимая роль национальных обычаев и традиций узбекского народа в воспитании учащихся начальной школы как личностей с разносторонним интеллектуальным потенциалом.

SUMMARY. This article comprehensively explores the significant role of the national customs and traditions of the Uzbek people in educating primary school students as individuals with comprehensive intellectual potential.